

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI
kafedrası

Adabiyot nazariyasi fanidan

REFERAT

Mavzu: Badiiy tasvir vositalari

Bajardi: Jabborova Muazzam

Qabul qildi: _____

Nukus 2014 yil

Badiiy tasvir vositalari

Reja:

1. So'zlarning asl va ko'chma ma'nolari
 2. Jonlantirish, litota va mubolag'a
- (Hamid Olimjon she'riyati misolida)

LIRIKADA BADIY TASVIR VOSITALARI

Hesh bir mubolag'asiz aytish mumkinki, san'atning barcha tur va janrlari tabiatga taqlidan paydo bo'lgan. Bundan uch ming yil ilgari Aristotel o'zining «Poetika» asarida buni uch turga – epik, lirik, dramatik turga ajritib beradi. Demak, shular ichida lirika o'zining ta'sirchanligi, ko'ngil dardlari, ohangraboligi bilan boshqa janrlardan jiddiy ajralib turadi. U inson qalbiga tez etib boradi. SHu sababli ham tezda ko'ngil va ruhiyatimizni hayajonga, goh toshqin daryodek shodlikka burkaydi.

Badiiy asarda so'z yoki birikmaning ko'chma ma'nosi trop deb yuritiladi. Trop (gr. Tropos - ko'chma)lar deb yuritiladi. Aslida tilimizdagi har bir so'z kelib chiqishi va iste'molga kiritilishida ko'chma ma'noda qo'llanilishdan tug'ilgan bo'lsa ajabmas. Lekin jamiyat va davr taraqqiyoti ta'sirida asl ma'nosi iste'moldan chiqibi ketishi va unitilib yuborilishi ham mumkin.

Troplar – adabiyotga jilo, joziba, nafosat, ta'sirdorlik, bo'yoqdorlik, estetik zavq, rang-barang fazilatlarni berishi mumkin. Quyosh tomchida akslangani kabi san'atkorning badiiyati, uning maorati birgina olingan tropda o'z tasdig'ini topishi mumkin.

Badiiy-tasviriy vositalarning barchasi ikki xil vazifani o'taydi.

1. Badiiy asarda ifodalangan g'oyani, shu g'oyani ashuvchi obrazni hayotiyroq, ta'sirchanroq ifoda qiladi. Bu mazmuniy vazifa.
2. Misralar, baytlar, bandlarning (demakki, badiiy asarning) lafziy musiqiyiligini va ta'sirchanroq ifoda qiladi. Bu shakliy vazifa.

Mazmun va shaklning monolitik xislati bu vositalarga ham xos bo'lgani sabab ular ikki vazifani birvarakayiga va bir vaqtda o'taydilar. Ularning har biri san'atkor badiiy mahoratnining kichik o'lchovi bo'la oladilar. Ularning har biri san'atkor badiiy mahoratining kichik o'lchovi bo'la oladilar, ya'ni san'atkor badiiy dunyosining hayotligini, go'zalligini, betakrorligini, yangiligini, ko'z-ko'z qila oladilar. Kitobxonni hayratga sola biladilar.

HAMID OLIMJONNING HAYOTI VA IJODIGA

BIR NAZAR

Hamid Olimjon 1909 yil 12 dekabrda Jizzax shaxrida dunyonga keldi. U to'rt yoshga to'lar-to'lmas, otasi Olimjon aka vafot etdi va bo'lajak shoir Azim bobo qo'lida tarbiya ko'rdi. Azim bobo Jizzaxning xatli-savodli va obro'-etiborli kishilaridan bo'lib, Fozil Yo'ldosh o'g'li Xatirchidan Jizzaxlik do'st-yorlarini yo'qlab tushganida, uning xonadonida xam bo'lar edi. Shunday paytlarda AbdulHamid bobosi pinjida o'tirib, navqiron baxshining do'mbira jo'rligida aytgan dostonlarini jon qulog'i bilan tinglar edi. Onasi Komila xola xam xalq ertak rivoyatlarining kiroyi bilingicha bo'lgan. AbdulHamid uzun qish oqshomlarini uning Yoriltosh, Oyngul va Baxtiyor, Toxir va Zuxralar xaqidagi sexrli ertaklarini tinglab o'tkazgan. Keyinchalik shoir bolalik kezlarini xotirlab, «O't bog'langan qanotlar, Beqanot uchgan otlar», «So'ylaguvchi devorlar», «Bola bo'p qolgan chollar» ni xayoldan o'tkazar ekan, «Buvimning xar qissasi, Xar bir qilgan xissasi fikrimni tortar edi» deb ilk o'sha adabiy manbani minnatdorchilik xissi bilan tilga olgan edi.

Hamid Olimjon shariyatning o'ta xalqchil oxang va rux kasb etishining sababi xam shundadir.

1916 yil Jizzax qo'zg'aloni AbdulHamidni go'zal ertaklar olamidan yulqib olib, fojiali asrning o'tli nuqtalaridan biringa tashladi. Qo'zg'alonni bostirish uchun kelgan jazo otryadi axolining kichik bir qismini qilichdan o'tkazib, qolgan qismini jazirama dahshatga xaydadi. Shaxarni to'pga tutib, shu jumladan AbdulHamid yashangan qo'zg'alonni xam er bilan baravar tekislab tashladi. Azim bobo bilan kenja farzandi Axmadjon aka esa o'rta Rusiya shaxarlariga mardikorlikka yuborildi.

Ko'p o'tmay, Fevral so'ng oktyabr to'ntarilishlari ro'y berdi. Shoirning bobosi ham, amakisi ham mardikorlikdan qaytishdi. 1918 yilda esa Abdulyamid Narimanov nomidagi to'liqsiz o'rta maktabga kirdi. 1923 yilda uni tungatib, Samarqanddagi o'zbek bilim yurtida S. Ayniy, A. Shakuriy, Xoji Muin, mashxur arxeolog V. L. Vyatkin sinngari allomalar dars berar edilar. AbdulHamid ana

shunday ijodiy muxitga tushgani uchun xam unda sher yozish mayli orta boshladi. U bilim yurtininng «Yosh kuch » devoriy gazetasi va «Uchqun» qo'lyozma jurnalida dastlabki sheriy mashqlarini elon qilib, talabalar etiboringa tushdi.

Abdulhamid bilim yurtini bitirib, 1928 yilda O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasiga o'qishga kirganida, adabiyotga bo'lgan qiziqishi bir muncha taniqlashgan edi. Shuning uchun ham 1929 yili «Ko'klam» nomli dastlabki sherlar to'plamining nashr etilishi kutilmagan xodisa bo'lmadi. Pedakademiya domlari S. Ayniy, A. Sa'diy, O. Sharafiddinov, A. Alaviy, G. Shengeliylar esa undagi baddiy did va istedodga sayqal berib, keyingi ijodiy o'sishiga mustaxkam zamin xozirladilar. Tirishqoq shogird o'z bilimni boyitish bilan birga badiiy ijod bilan xam muttasil shug'llanib, 1931 yilda «Tong shabadasi» xikoyalar to'plamini, 1932 yilda esa «Olov sochlar» sheriy kitobini elon qildi.

Hamid Olimjon sheriya etagini ushlagan bu davrda Stalinning, bolsheviklar firqasining yakka xokimligiga asoslangan davlat tuzumi qaror topmoqda, bilim yurti va pedakademiya berilgan tarbiya talabalarning shu tuzimga nisbatan sadoqatli bo'lishiga qaratilgan edi. Stalin chorizmni «xalqlar turmasi» deb atab, 1916 yil qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirgan chor xukumatiga nafrat uyg'otmoqchi va shu yo'l bilan ham qora kunda tug'ilgan shu on bo'g'ilgan AbdulHamidlarda umid va ishonch qozonmoqchi edi. Xalqni marifatli qilish bo'yicha ko'rilgan bazi bir choralar yoshlarda yangi tuzumga xayrixolik uyg'otdi. Vladimir Mayakovskiy, Nozim Xikmat singari shoirlarning inqilobiy shelari ularga bu borada madad berdi. Stalin va firqa bergan vadalarga chipa-chin ishongan Hamid Olimjon sovetlar yurtininng baxtlar vodiysiga astoyidil ishondi. Romantik shoir 1932 yil nafaqat o'z ijodining, ayni paytda 30-yillar sheriyaatining bayrog'i bo'lgan «Baxtlar vodiysi» sherini yaratib, «Payga» va «O'lim yovga!» to'plamlarini chop etdi.

Hamid Olimjon 1935 yili Zulfiyaga uylanadi.

30-yillarning ikkinchi pallasi shoir uchun yangi sinovlar va ijodiy yutuqlar davri bo'ldi. Qat'iy ichki intizomga ega bo'lgan Hamid Olimjon qisqa vaqt orasida

qalamini charxlabgina qolmay, ravon sheriy uslubni xam shakllantirib oldi. Bu davrda u «Daryo kechasi» (1936), «Sherlar» (1937), «O'lka», «Oyngul va Baxtiyor» (1939) xamda «Baxt» (1940) sheriy to'plamlarini bosamadan chiqardi.

1939 yil yanvarida u o'quv-pedagogika nashriyotiga ishga olindi, o'sha yilning noyabrida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan Navoiy komitetining masul kotibi qilib belgilandi. 1939 yil 27 aprelda esa O'zbekiston yozuvchilarning 2 quriltoyida respublika yozuvchilar uyushmasi boshqaruvchining kotibi qilib saylandi.

O'zbek adabiyotininng o'ttiz yoshli sardori bu masul lavozimda o'zining ajaoyib tashkilotchilik istedodini namoyish etdi. U ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan yozuvchilar va olimlarni joylashtirish ularga moddiy yordam ko'rsatish, ijodiy quvvatlarini o'zbek adabiyoti manfaati yo'lida safarbar etishda ibratli ishlarni amalga oshirdi. Navoiy yubileyiga taraddud ko'rish, o'zbek adabiyoti namunalarini qardosh tillarga tarjima etish ishini yo'lga qo'ydi. Ayni paytda o'zi xam vatanparvarlik nurlari bilan sug'orilgan sherlar va balladalar, publitsistik maqollar yozdi muqanna qo'zg'aloniga bag'ishlangan sheriy fojia yaratdi.

Shoir avji ijodiy kuch ga to'lgan paytda-1944 yil 3 iyul kuni avtomobil xalokati natijasida vafot etdi. Uning adabiy merosi o'n jildlik «Mukammal asarlar to'plami»da to'la ravishda nashr etilgan.

2. Hamid Olimjon sherlarininng g'oyaviy-baddiyy xususiyatlari.

Hamid Olimjon o'zining butun vujudi bilan o'z davrining farzandi va shu davr kuychisi. 30-yillarning o'rtalariga qadar bo'lgan shoir ijodida davlat raxbarlari tomonidan tanlangan shoirlar g'oyaviy «poydevor» vazifasini o'tadi. Dastlab shoir bu poydevor ustida baddiyatning muxtasham ustunlarini o'rnatib, salabatli imorat qurishni bilmadi. Davr shiorlari, davlat raxbarlarining chaqiriqlari, firqa Askar yosh shoirlarida bo'lganidek yalong'och bir shaklda ifoda etildi. Shoirninng “Temir qonun”, “O'lka safarbar”, “Mudofaa kunlarida”, “Kadr”,

“Tarix ko’rganmi?”, “Nima biznga Amerika!” sherlarida kalondimog’lik, talimotni tushunmagan unga ko’r-ko’rona sajda qilmagan kishilarga nisbatan g’azab va nafrat. Xalqni sinfiy tabaqalarga bo’lish va ularning bir qismiga «dushman» tamg’asini bosish mayllari ustivorlik qildi. Ana shunday kayfiyatdagi sherlarning «qaymog’i» sifatida maydonga kelgan «O’lim yovga» publitsistik dostonida esa 1929 yilda nohaq qamalngan va stalincha qatag’on yillarining O’zbekistondagi dastlabki qurbonlari Botu, Ramziy, Oltoy kabi shoirlarga lanat toshlari yog’dirildi.

Adolat xaqqi, shuni aytish kerakki, bu davrda yangi tuzumga, belgilab bergan rejalarga, o’zbek yozuvchilari orasida Hamid Olimjon yolg’iz emas edi. Lekin xech kim ijodda Hamid Olimjondek samimiyat va izchillik bilan yangi tuzumga xizmat qilmagan.

Keyingi yillarda malum bo’lishicha, urushga qadar bo’lgan birorta besh yillik rejalari bajarilgan emas. Ammo rasmiy matbuot xar safar besh yillik rejalarning muddatidan oldin bajarilgani, mamlakatning yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgani xaqida tinmay bong urgan. Hamid Olimjon singari yosh xayotni matbuot orqali biluvchi shoirlar esa bunga ishongan.

Hamid Olimjonning 30-yillar ijodida ustuvorlik qilgan romantik tasvir uslubi u tushib qolgan ana shu xayolparastlikning, shirin ro’yolarning samarasidir.

Shnday suratlarni quvib etdikki,
Shnday qadam tashlab chopib ketdikki,
Amerika xayol xam qilolmas uni.
Xar Ishim yurishim, turishim mening
Belgisi ertangi porloq baxtimning!

Shoir ijodida romantik ko’tarinkilik ana shu sarob ishonchga asoslangan edi. Ammo u ijodiy tajriba orttirgan sayin bunday yalong’och shoirbozlikdan «davr g’oyalari» ni badiiy libosga o’rash sanatini engallab bordi va bu soxada kamolot ch o’qqisiga erishdi.

Hamid Olimjonni u yashagan zamon va makondan ajratib olish mumkin emas. Lekin, shu bilan birga uning sanatkori sifatida o’z davri xududlarini yorib

chiqib, umuminsoniy g'oya va tuyg'ular tarannumiga kelganida xam befarq qarab bo'lmaydi. Hamid Olimjon XX asr o'zbek shariyati Ch o'lpon va Oybekdan so'ng inson ruxiy olamini nafis bo'yoqlar bilan och ilshga katta etibor berdi. Uning 1936 yildan keyingi ijodida lirik qaxramonning ichki olami barcha go'zal jilvalari bilan aks etdi.

Hamid Olimjonning baxti sururidan mast bo'lgan lirik qaxramonni mustaqillik uchun kurashda o'z baxtini xam, sevgisini xam qurbon qilishga tayyor. Zero, uning uchun shaxsiy farog'atdan ko'ra xalqning, yurtning taqdiri, istiqloli muximdir. Uning butun shariy ijodida olg'a surilgan g'oyalar shu nuqtaga kelib, o'zaro tutashadi. Shoir go'zal insoniy tuyg'u va kechinmalarni tasvirlash jarayonida yuksak badiiyat davonlarini zabt etadi. Uning so'z va tasvir vositalaridan foydalanish sanati o'z kamoliga etar ekan, sherlari faqat musiqiy ravonlik va xalqchilik kasb etibgina qolmay, kishi ruxinga estetik tasir ko'rsatuvchi qudratga xam eng bo'ladi.

Badiiy-tasviriy vositalar orasida – jonlantirish ham o'ziga xos o'rin tutadi. Jonlantirish ham kishi ko'ngliga yorug'lik bag'ishlaydi.

JONLANTIRISH – keng ma'noda metaforaning bir ko'rinishi, jonsiz narsa-hodisalarga inson, umuman, jonli mavjudotga xos sifatlarning berilishi. SHuningdek, jonivorlarga insonga xos sifatlarning berilishi ham Jonlantirishning bir ko'rinishi (antropomorfizm) sanaladi. Jonlantirish badiiy asarda turli darajada voqe bo'ladi: 1) stilistik figura. Inson tafakkuriga xos analogiyalar asosida (metaforik) fikrlash, til an'analari bilan bog'liq holda va muayyan g'oyaviy-estetik maqsadni ko'zlab badiiy nutqda narsa-hodisalarga jonli mavjudotlarga xos xususiyatlar beriladi.

Jonlantirish – odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz predmetlarga, tabiatning turli hodisalariga ko'chirish orqali to'g'rirog'i, ularni insoniylashtirish orqali paydo bo'ladigan tasvirdir. Bu tasvirning ikki xil ko'rinishi mavjud: Birinchisi, tashxis (shaxs bilan bog'liq) jonsiz narsalarni jonlantirish usulidir: badiiy asarda go'yo quyosh yuguradi, daryo shoshadi, samo kuladi, ko'z yosh to'kadi, majnuntollar boshlarini egib ta'zim etadi, qushlar gapiradi bulutlar

ho'mrayadilar va qovoq osadilar, yig'laydilar, tun uxlaydi, oy yuradi yulduzlar guvohlikka o'tdai, qashshoqlik kuladi. Hamid Olimjon hassos shoir. Uning barcha she'rlarida nafosat va baxtga limmo-lim kayfiyat ufurib turadi:

«Zoriqtirmay kelsang-chi bir,
Intizor qilding buncha...»,
Deb yaproqlar tebranadi,
To charchab uxlaguncha.
Quyosh chiqib isitsa ham,
Sendursan deb o'ylaydi.
Tunda oy kezib o'tsa ham,
Sendursan deb o'ylaydi.

Agar shamol qo'zg'ab qolsa,
Titrashadi keladi deb.
Erga qadar egiladi,
Aytganlarim bo'ladi, deb.

Noyob yigit bosib o't, deb,
To'kiladi yo'lingga.
Gul barglari uchishadi,
Tushayin deb qo'lingga.

YOri o'tqazib ketgan nihol – judayam intiqqan, beadam sog'ingan, sadoqatli dildor, «ko'zlariga surtmoq uchun urning gardi(changi, zarrasi)ga zor o'zbek ayolining qalbi bo'lib so'zlaydi». Bu qalbning yorga bunchalik intizorligini faqatgina jonlantirish san'ati, bu san'atning ustamoni Hamid Olimjon g'oyatda ta'sirli qilib, zarur milliylikka o'rab tiriltira oladi. Bu san'atkordir, bu insoniylikdir, bu ibratomuz darslikdir.

YOKi quyidagi she'rlarida ha jonlantirish o'ziga xos tarzda ham aniqlikka erishgan. SHoir aytmoqchi «muhabbatning yurakda gullashiga» alohida urg'u beryapti:

Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbga ishq bo'lar mehmon.
Har yurakda gullar muhabbat,
Bo'ston etar uni begumon.

Bunda shoirning olamni o'ziga zos tarzda qabul etishi va muhabbatning noyob tushuncha ekanligini ko'z o'ngimizda jonlantira oladi.

Men dunyoga kelgan kundoq,
Vatanim deb uyg'ondim seni.
Odam baxti birgina senda,
Bo'luriga mukammal qondim.
Qulog'imga noming kirganda,
Qullik kabi tashna boqurman.
Seni jannat vodiylaringda,
Nahrlardek to'lib oqurman.
Bilsinlarkim yo'ldoshim bo'lmas,
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,
Tillari bor o'zlari hayot,
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.
Har aytganing buyuk joynamo,
Qayga desang qaytmay keturman,
Ko'zlarimni yummasman aslo,
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

Bunda ko'rinadiki, shoir o'zining lirik kayfiyatini chiroyli va ta'sirchan, jonli tarzda kitobxon qalbiga etakzib bera olgan. Xususan, shoirning juda ko'plab she'rlarida jonlantirish san'ati o'rinli va obrazli qo'llanilgan. Bu hol kishi ko'ngliga umid bag'ishlash bilan bir qator, ezgulikka, insoniylikka, diyonatga, mehr-muhabbatga, muruvvatga, sadoqatga vafodorlikka chorlaydi. Ana shunisi bilan ham Hamid Olimjon lirikasi «baxt va shodlik» haqida so'z ochadi. O'quvchini sirli va hayotbaxsh kayfiyatga ro'baro' etadi. Bu esa shoirning chin

ma'nodagi iste'dodidan, maoratidan. Xudo bergan talantli ijodkorligidan dalolat beradi.

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston –
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
CHIroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
CHor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.

Bu misralardan ham bilsa bo'ladiki, Hamid Olimjonning shoirona olamni idrok etishi naqadar ulug'ligini. SHu bois ham biz shoirni «Baxt va shodlik» kuychisi deb ataymiz.

San'atkor hayot voqealaridan ta'sirlanib, qalbidagi tug'yonlarini kuyib, yonib, musiqaviy ohangdor qilib tasvirlashi ham mukin. Jumladan, shoirning «Savol»i kuydek yokimli, jozibador va sodda. Uni yorga bo'lgan intilishning beg'buor va mayin tasvirini, yoqimli qo'shiqni xirgoyi qilasiz.

Kiyintirsam seni bahorga,
YUlduzlarni o'rasam qorga.
Olib kelib oldingga qo'ysam,
Ham yulduzni, ham seni suysam.
To tonggacha so'ylasam ertak
CHEchak terib etak va etak
Oyog'ingga keltirib to'ksam,
Seni maqtab, ag'yorni so'ksam –
SHunda seni ko'ngling to'lurmi?
Aytganlaring bajo bo'lurmi?..

Ushbu she’rda hayotning keng manzarasi ifodasi yo’q, unda yorning iltijosi borasida qalbda uyg’ongan tuyg’ularning bir oniy tasviri bor xolos. YOrga baxshidalik, yor ko’nglini olish uchun borligini berishga tayorlik bor. Bu – shoirning shaxsiy kechinmalari shaklida, hayajonli va musiqiy tarzda yuzaga chiqyapti.

Litota. (yunoncha – oddiy, kichik) mubolag’aning teskarisi bo’lib, badiiy asardagi biror predmetni, hodisani, detalni bir necha barobar kuchaytirib, zaiflashtirib, kuchsizlantirib tasvirlansa, unga nisbatan tasvirlanayotgan narsa, hodisa ulkan va ulug’vor ko’rinadi. SHu sabaga ko’ra litota mubolag’a bilan birga ishlatiladi.

Hamid Olimjonning she’riyatiga xos bo’lgan bir jihat shuki, unda tabiat hodisalari bilan inson ruhiyatini bir butunlikda o’xshatish jonli tarzda ifodalanadi.

Oy deganda yuzi bor,
Kun deganda ko’zi bor...
Qaldirg’och qoshlaridan,
To’lib qarashlaridan
Hayot sochilar edi,
Gullar ochilar edi.

Bu parchada H.Olimjon Oygulning yuzini oyga, ko’zini kunga, qoshini qaldirg’ochga, qarashlarini gul ochilishiga o’xshatib uning go’zalligini ta’kidlaydi va Oygul qiyofasini jonlantiradi.

Go’zal yurt Susambilda
Bir podachi bor edi.
U mashhur edi elda,
Nomi baxtiyor edi.
Go’zal edi va chinor
Nomi baxtiyor edi.
Ko’kraklari butun bir
Oftobni yashirardi.
Tanlarida bir umr

O'tlovlab turardi.
Qilichday o'tkir edi,
Rustam kabi zo'r edi.
Ammo elda xor edi.
Kambag'al nochor edi.
U doim boqib poda,
Yurar edi saxroda.

Bunda bahodir lapqomat Baxtiyorning buyukligini ta'rif-tavsiflaydi. SHu bilan H.Olimjonning shoirona mahorati yana bir yuksak darajada ekanligi ayonlashadi.

MUBOLAG'A (ar. – oshirish, orttirish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, narsa-hodisalar, insonlar va boshqa mavjudotlarga xos xususiyatlarni tabiiy holiga nisbatan bo'rttirib, kattalashtirib yoki kichraytirib tasvirlash. Mubolag'a xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham juda keng qo'llangan san'atlardan sanaladi. Ilmi badi'ga oid manbalarda Mubolag'a berilgan ta'riflarda tafovutlar deyarli bo'lmasa-da, uning turlarga bo'linishida ayrim farqlar seziladi. SHunga qaramay, ularni umumlashtirib, Mubolag'aning quyidagi ko'rinishlarini farqlash mumkin:

1. Tasvir ob'ektini o'ta kichraytirishi yoki o'ta kattalashtirishi jihatidan Mubolag'aning tafrit va ifrot deb yuritiluvchi turlari ajratiladi. Tafrit tasvir ob'ektini o'ta kichraytirish, kuchsizlantirish demakdir. Mas., Atoyining:

YUurda eng bila og'zingni tutma,

Nimakim, yo'qturur yoshirmog'ing ne? –

baytida engi bilan og'zini berkitgan yorga “O'zi asli yo'q bo'lgan narsani berkitib nima qilasan?” deya murojaat qilnadiki, bundan yorning og'zi yo'q darajada kichik, degan ma'no kelib chiqadi. Og'izning kichik bo'lishi go'zallik belgilaridan biri sanalgani e'tiborga olinsa, shoir yor go'zalligi ta'rifida mubolag'a qilayotgani ayon bo'ladi.

Hamid Olimjonda buning bir necha turlarini ko'rishimiz mumkin.

Sening uchun butun elni,

Og'ir uyat tutsinmi?
Seni ko'rganda quyosh
YUzini bekitsinmi?..

Ko'zing tushganda, Amu
Ilondek to'lg'onsinmi?
Zarafshon uyatingdan
YAntoq kabi yonsinmi?..

«Jangchi Tursun» she'rida ona –Vatan tuprog'ining har qarichini asrash lozimligini uqtirar ekan, «Qayga chekinasan? Bormi keraksiz ering? Ne uchun odam bo'lding, kelmasang dushmanga teng?» deya haqiradi. Bu kabi mubolag'alar aniq asarning g'oyasini ochishda eng zarur va yaratuvchan vositadir, ayni paytda, ular san'atkor qalbining bepoyonligini, tafakkurining xalqchilligini, shoirligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 2004 yil. 262 – bet.
2. Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. –T.: «SHarq», 2002. 265-bet.
3. T.Boboev. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: «O'zbekiston» nashriyoti. 2002. 420-bet.
4. H.Olimjon. Daryo kabi uyg'oq o'turman. –T.: «SHarq», 2009. 346-bet.
5. H.Umurov. Qalblar qo'shig'iga aylangan umr. –S: «Zarafshon», 2009. 136-bet.
6. D.Qurnov. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 226-bet.
7. B.Akramov. She'riyat gavhari. –T. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1979. 186-bet.

--